

**BIR MAKON BIR YO‘L LOYIHASI DOIRASIDA O‘ZBEKISTONNING  
XALQARO SAVDODAGI ROLINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

*Rahmonov Sardor Abdusattor o‘g‘li*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, integratsion jarayonlarning tobora chuqurlashishi va xalqaro savdo samaradorligining transport logistikasiga bog‘lanib qolishi mamlakatlarning bir loyiha ostida birlashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ushbu zaruriy jarayonni ro‘yobga chiqarish va mintaqalararo integratsion aloqalarni rivojlantirish maqsadida Xitoy Xalq Respublikasi “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi tashabbusini ilgari surdi. «Bir makon – bir yo‘l» loyihasining ahamiyati, ko‘lami, maqsadlari hamda uning Markaziy Osiyo jumladan O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri, transport koridorlari shakllanishi jarayonlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Maqolada bu borada muallifning fikr va takliflari qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Transport logistikasi, transport yo‘lagi, jahon bozori integratsiyalashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro savdo, transport koridorlari, Xitoy, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak Yo‘li.

**KIRISH**

Mamlakatimizda keyingi yillarda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

“O‘zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyili asosida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratilib, o‘zaro ishonch va yaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, suvdan oqilona foydalanish, chegara, transport qatnovini qayta tiklash, milliy va mintaqaviy logistika xizmatlarini kengaytirish kabi ko‘plab nozik masalalarning samarali yechimiga asos bo‘lmoqda. Xususan, millatlararo tinchlik va totuvlik, puxta o‘ylangan va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilganligi natijasida qo‘shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlar yo‘lga qo‘yilib, Markaziy Osiyo hududida savdoiqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Xitoy davlatining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Bir makon – bir yo‘l” loyihasi doirasida mamlakatimizning transport-kommunikasiya infratuzilmalari sohasidagi imkoniyatlarini oshirish lozim. Tranzit davlatlar, xususan, Turkmaniston,

Eron, Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda preferensiyalarga ega bo‘lish haqida jiddiy o‘ylashimiz kerak. Shu sababli xorijiy va mahalliy investorlarning logistika sohasida aniq loyihalarni amalga oshirish borasidagi harakatlarini rag‘batlantirish hukumat oldidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bugungi kunda O‘zbekistonda transport logistikasini rivojlantirish, undagi xizmat turlarini zamonaviylashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu strategiyada transport sohasini rivojlantirish sohasida bir qancha vazifalar belgilangan. Bular:

- milliy transport logistika kompaniyalari o‘rtasida raqobat darajasini oshirish;
- avtomobil parklarini kengaytirish;
- yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- eksportga mo‘ljallangan milliy mahsulotlar narxlarini raqobatdosh qilish maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlari sonini oshirish;
- avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish belgilab o‘tilgan.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 dekabrda “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida — temir yo‘l, avtomobil va aviasiya transportini yanada rivojlantirish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yuk tashish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro logistika markazlarini barpo etish, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llarini, yo‘l bo‘yidagi zarur infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilish belgilab o‘tilgan.

Bir makon – bir yo‘l loyihasi orqali O‘zbekiston transport sohasini rivojlantirish maqsadida hamkor mamlakatlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil davomidagi Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Rossiya hamda Xitoy davlatlariga amalga oshirgan davlat tashriflari chog‘ida tashqi bozorlarga chiqishni ta‘minlovchi eng qisqa va samarali transport hamda tranzit yo‘laklarini rivojlantirish sohasidagi hamkorlik masalalari tomonlar diqqat-e‘tiborida bo‘ldi.

Ushbu davlat tashriflari natijasida Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida 2017 yilda M-39 yo‘lining Qozog‘istonning Maqtaral tumani orqali o‘tuvchi qismi ochilishi va “Toshkent - Olmaota” tezyurar poyezdi hamda ikki mamlakat shaharlari o‘rtasida avtobus qatnovining yo‘lga qo‘yilishi bu ikki davlat o‘rtasidagi transport sohasini rivojlanishiga turki bo‘ldi. Shuningdek, Prezidentimizning Turkmanistonga qilgan safarlari davomida, “Turkmanobod-Farab” avtomobil va temir yo‘l ko‘priklarining ochilishi muhim voqea bo‘lib hisoblandi .

Shuningdek, Prezidentimizning 2017 yil noyabr oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqida mintaqaning tranzit-logistika salohiyati-dan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlanishini ta‘minlash maqsadida 2018 yilda Toshkentda “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va amalga oshirilmagan imkoniyatlar” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi bilan chiqdi.

Mamlakatimiz xalqaro dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emasligi uning transport logistikasini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari bilan shug‘ullanayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmoqdalar:

**1-yo‘lak** – Boltiqbo‘yi davlatlari portlari yo‘nalishida (tranzit bilan Qozog‘iston va Rossiya orqali) – Klaypeda (Litva), Riga, Liyepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

**2-yo‘lak** – Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozog‘iston va Rossiya orqali) – Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara o‘tishlari, keyinchalik Yevropaga;

**3-yo‘lak** – Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozog‘iston va Rossiya orqali), Qora dengizga chiqish bilan;

**4-yo‘lak** – Gruziyaning Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga chiqish bilan, TRASEKA yo‘lagi deb nom olgan;

**5-yo‘lak** – Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors ko‘rfaziga chiqish bilan;

**6-yo‘lak** – Sharqiy yo‘nalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozog‘iston orqali) Sariq dengizga;

**7-yo‘lak** – sharqiy yo‘nalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozog‘iston va Rossiya orqali) Sariq dengizga.

**8-yo‘lak** – Turkiya va Yevropaga (“Baku-Axalkalaki-Kars” yangi temir yo‘lida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali) [5].

➤ Hozirgi kunda yana quyidagi yo‘nalishlar rivojlantirilmoqda:

- Yevropa va Janubii-sharqiy Osiyo yo‘nalishida (Turkiyaning Mersin porti orqali tranzit bilan Turkmaniston va Eron orqali);
- Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirg‘iziston orqali) Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan.
- Afg‘on muammosi tartibga solinishi munosabati bilan tranzit bilan Afg‘oniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Chaxbahor portlariga chiqadigan janubiy muqobil transport yo‘laklarini ishlab chiqish bo‘yicha yangi istiqbollar ochilmoqda.

Mutaxassislarning fikricha mamlakatimizda transport sohasini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha muammolar mavjud. **Birinchidan**, transport xarajatlarining yuqoriligi hisoblanadi. Jumladan, avtomobil transporti tomonidan ko‘rsatilayotgan yuk tashish xizmatlari tannarxi tarkibi rivojlangan mamlakatlarning o‘xshash ko‘rsatkichlaridan juda farq qilar ekan. Ayniqsa, tannarx tarkibida yonilg‘i, amortizasiya xarajatlari, soliq va yig‘imlar ulushi bir necha marotaba yuqori bo‘lib, rag‘batlantirishning eng samarali vositasi hisoblanuvchi haydovchilar ish haqi ulushi 3 barobardan ham kamroq ekan .

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tashish xarajatlarining asosiy moddalari transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va yoqilg‘i moylash materiallari hisobiga to‘g‘ri keladi. Respublika hududiy avtomobil transporti birlashmalarida ishlatilayotgan transport vositalarining eskirish darajasi ularning avtomobil transporti xizmati ko‘rsatish bozoridagi raqobatga bardosh bera olmasligining asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**1-jadval. Avtomobil transportida yuk tashish tannarxining tarkibiy tuzilishi<sup>1</sup>**

Xarajatlar nomi	Tashish tannarxidagi ulushi % da	
	O‘zbekiston	Yevropa ittifoqi
Yoqilg‘i	37 - 40	16 - 20
Moylash materiallari	2 - 2,2	3
Haydovchining ish haqi	15 - 16	52 - 55
Shina xarajatlari	2 - 2,5	1 - 1,1
Amortizasiya ajratmalari	10 - 12	5 - 6
Soliq va yig‘imlar	6 - 7	2
Boshqa xarajatlar	20 - 21	16

<sup>1</sup> Манба: Оптимизация транспортных расходов – важный фактор устойчивого развития экономики: проблемы и решения. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)

**Ikkinchidan**, mamlakatimiz transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi. Jumladan, Xalqaro “LPI” (Logistics Performance Index) tashkiloti ma’lumotlariga asosan mamlakatimizning xalqaro logistika ko‘rsatkichlari indeksiga nazar tashlasak, eng yuqori natijalar aynan infratuzilma va o‘z vaqtida yetkazib berish indikatorlarida nisbatan ijobiylikini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar Xitoyda o‘rtacha 4.07 ni, Singapurda 4.14 ni, qo‘shni Qozog‘iston Respublikasida esa 2.75 ni tashkil etadi.

**Uchinchidan**, mintaqa doirasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlarning talab darajasida emasligi. Jumladan, O‘zbekiston va Tojikiston “Xalqaro avtomobil tashuvlari to‘g‘risida”gi bitimning mavjud emasligi (3-jadval) va mavjud “ruxsatnomasiz” bitimlarda uchinchi mamlakatlarga va ulardan tashish masalalari tilga olinmaganligi ikki davlat o‘rtasida transport tashuvlariga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

**2-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro yuk tashuvlardagi ikki tomonlama kelishuvlari<sup>2</sup>**

	Қозоғистон	Қирғизистон	Тожикистон	Туркменистон	Ўзбекистон
Қозоғистон		*	*	***	**
Қирғизистон	*		**	***	**
Тожикистон	*	**			—
Туркменистон	***	***			***
Ўзбекистон	**	**	—	***	

\* Ikki tomonlama yuk tashuvlar va tranzitda hamda uchinchi davlat tomonidan yuk tashuvlarda ruxsatnomasiz tashish.

\*\* Ikki tomonlama yuk tashuvlar va tranzitda ruxsatnomasiz tashish. \*\*\* Barcha tashuvlarda ruxsatnoma talab etiladi.

Shuningdek, mintaqa davlatlari tomonidan bir qator Xalqaro konvensiya va kelishuvlarni imzolanmaganligi (Tojikiston va Turkmaniston mamlakatlarining “Tijorat yuklarni vaqtinchalik o‘tkazish to‘g‘risida”gi va “Konteynerlar to‘g‘risida”gi bojxona konvensiyalariga a’zo emasligi) xalqaro yuk tashuvlarning sekinlashuvi va transport xarajatlari ko‘payishiga olib kelmoqda<sup>3</sup>.

Fikrimizcha, mamlakatimizda transport logistikasini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

<sup>2</sup> Международные перевозки в Центральной Азии: понимание тенденций сотрудничества. WWW.ucentralasia.org

<sup>3</sup> Christopher K. Johnson (2016), President Xi Jinping’s ‘Belt and Road’ Initiative: A Practical Assessment of the Chinese Communist Party’s Roadmap for China’s Global Resurgence, Center for Strategic and International Studies, March. [https://csisprod.s3.amazonaws.com/s3fspublic/publication/160328\\_Johnson\\_PresidentXiJinping\\_Web.pdf](https://csisprod.s3.amazonaws.com/s3fspublic/publication/160328_Johnson_PresidentXiJinping_Web.pdf).

- Mintaqa davlatlari bilan transport sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, normativ huquqiy bazani takomillashtirish va tranzit ta'riflari soddalashtirish;
- mamlakatimizning Farg'ona vodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro hududlarida logistikaablari yaratish va logistika va transport tizimiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq;
- mamlakatimizda zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;
- mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi logistika markazlari tashkil etishni o'z ichiga oluvchi mamlakat transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- avtomobil transporti orqali tashuvlarda mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida, mahsulotlarni uzoq masofaga tashishi uchun foydalaniladigan transport vositalariga belgilangan import bojxona to'lovlari ni kamaytirish yoki imtiyozlar berish (hozirda import boji tovar qiymatining 100-120% atrofida);
- O'zbekistonning geografik joylashuvi zamonaviy ombor komplekslari va logistika markazlari tarmog'i rivojlanishida strategik muhim jihat bo'lib, yuklarni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish va savdo kompaniyalari logistikasini samarali tashkil etish imkonini berishi mumkin.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, so'nggi yillarda O'zbekiston hududi orqali harakatlanayotgan xalqaro yuklar kamayib bormoqda. Mamlakat hududidan tashilgan xalqaro yuklarning kamayishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida transport tashuvlari uchun belgilangan tarif stavkalarining yuqoriligi, mamlakatga kirib kelgan xalqaro, xususan, tranzit yuklarga nisbatan qo'llanilayotgan bojxona nazorati shakllarining murakkabligi hamda respublikani aylanib o'tuvchi muqobil transport koridorlarining ishga tushirilishini ko'rsatish mumkin.

#### REFERENCES

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Darslik. T.: Universitet, 2020, 156-bet
2. Islamov B., Islamov., Primova S. Uzbekistan for Efficient Use of the Old and New International Corridors between Europe and Asia to Expand its foreign Economic Relations with East and West, North and South. Journal of German Hanns Seidel Foundation-Magazine AMEZ, Bavaria, FRG, 2021
3. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute.
4. W.W. Norton & Company. New York, London, 2019.
5. <https://www.moodys.com/researchandrating?lang=en&cy=aus>
6. <https://www.worldbank.org>